

Adabiyot fani 6-sinf. IV chorak 4-ChSB.
Test topshiriqlari. Jami 40 ball

1. (B-2,5 ball) Qaysi asarda Mahkam aka obrazi uchun Shoahmad Shomahmudov prototip qilib olingan?

- A) "Hazrati Inson" romani
- B) "Sen yetim emassan" she'ri
- C) "Birinchi sinov" hikoyasi
- D) "Baxtli shahzoda" ertagi

2. (B-2,5 ball) Quyida berilgan she'riy parchada ajratib ko'rsatilgan so'zning izohi to'g'ri berilgan javobni tanlang.

*Qizil kendir bilan shivirlashar tol,
 Turna uchib borar olis yoqlarga.*

- A. Lolalar o'sgan adir.
- B. Bog'larda o'sadigan buta.
- C. Pushti gulli o'simlik.
- D. Chiroyli sayraydigan qush.

3. (B-2,5 ball) "*Mening bolaligim, muayyan ma'noda, Samarqand taassurotlari bilan to'yangan. Ayni shu sababdan ijodimning ildizlari ham shu tabarruk zaminga chuqur yoyilgan. Bolalikdan ertaklar, afsonalar ichida yashaganman*".

Ushbu fikrlar muallifi qalamiga mansub asar nomi berilgan qatorni aniqlang.

- A. "Qadrdon so'qmoqlar".
- B. "Vatan devorlari".
- C. "Uzum".
- D. "Sen yetim emassan".

4. (Q-4,5 ball) "Baxtli shahzoda" asari mazmuniga mos keluvchi fikrni aniqlang.

- A. Odamlar shahzodaning ko'nglini olish uchun unga atab haykal qo'yishdi.
 - B. Hokim haykalning qaldirg'och bilan do'st tutinganidan ajablandi.
 - C. Shahzoda ilgari ko'rmagan g'urbat va g'amdan ezilib yig'lardi.
 - D. Qaldirg'ochning haykaldagi qimmatbaho toshlarni olishga madori yetmay qoldi.
5. (Q-4,5 ball) **Mahkam aka – Baxtli Shahzoda.** Ushbu qahramonlarni o'zaro qanday xususiyatlar bog'lab turadi?

- A. Qiziquvchan, hamma narsaga qiziqadi, ko'p savol beradi.
 - B. Mehribon, hammaga yordam beradi, hatto o'z jonini ham ayamaydi.
 - C. Xayolparast, sayohatlarni yoqtiradi, hayotda ko'p orzular qiladi.
 - D. Jasur, har qanday vaziyatda to'g'ri xulosa chiqarib vaziyatdan chiqqa oladi.
6. (Q-4,5 ball) Berilgan parchalarning qaysi asarga mosligini aniqlang.

t/r	Birliklar		Asar nomi
1	Bolakaylarni unchalik jinim suymaydi. O'tgan yoz, daryoning tepasida yashagan chog'imda tegirmonchining battol zumrashalari toshbo'ronga tutganlari tutgan edi.	a)	"Bo'sh kelma, Aliqulov"
2	...Sendan so'rayapman, bez bo'lib o'tirmsandan javob ber! Nega sira dars tayyorlamaysan? – Tayyorlayman, – dedim ming'illab.	b)	"Qadrdon so'qmoqlar"

	– Go‘rni tayyorlaysanmi? Tayyorlasang, har kuni shunaqa “ikki” olib kelarmidинг?		
3	– Odam bolasini oq-qoraga ajratmang. Dunyoda bitta shunaqa ablah chiqib, ne kunlarnisovotti odamlar boshiga. Hali jazosini tortadi. Bularning ko‘z yoshi ko‘r qiladi...	c)	“Baxtli Shahzoda”
4	Har kimning tug‘ilgan yeri – Misr shahri.	d)	“Hazrati inson”

A. 1-d, 2-c, 3-a, 4-b.

B. 1-b, 2-a, 3-d, 4-c.

C. 1-c, 2-a, 3-d, 4-b.

D. 1-a, 2-c, 3-b, 4-d.

7. (Q-4,5 ball) “Hazrati inson” asari haqidagi ma’lumotlarning “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” ekanligini aniqlang.

t/r	Ma’lumot
1	Asardagi voqealar real hayotga unchalik ham mos kelmaydi.
2	“Hazrati inson” deganda Muallif Mahkam akaga o‘xshagan mehribon insonlarni nazarda tutgan.
3	Asardan o‘zgalarning ham qalbini tushunish, orzularini hurmat qilish kerak degan xulosa kelib chiqadi
4	Vitya boshqa bolalardan ota-ona mehrini va moddiy narsalarni ham qizg‘anar edi.

A. 1-noto‘g‘ri, 2- to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri, 4- to‘g‘ri

B. 1-to‘g‘ri, 2- noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4- noto‘g‘ri

C. 1-noto‘g‘ri, 2- to‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4- to‘g‘ri

D. 1-to‘g‘ri, 2- to‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4- noto‘g‘ri

8. (Q-4,5 ball) Qaysi javobda badiiy asardan olingan parcha haqida to‘g‘ri mulohaza berilgan?

“Ertasiga kunbo‘yi uning yelkasida o‘tirib, uzoq yurtlarda ko‘rgan g‘aroyib narsalari haqida so‘zlab berdi: Nilning sayoz qirg‘oqlarida saf tortib, uzun tumshuqlari bilan oltin baliqchalarni tutib yeydigan pushti qushlar haqida, sahroda yashaydigan va hamma narsadan voqif, dunyo kabi ko‘hna Sfinks haqida, kahrabo tasbeh donalarini bitta-bitta tashlab tuyalarining yonida ohista yurib boradigan savdogarlar haqida, xurmo daraxtida uxlaydigan va yigirma nafar kohin asal kulchalar bilan boqadigan ulkan Zangori Ilon va mudom kapalaklar bilan jang qilib yuruvchi, yassi va keng yaproqlarda ko‘l bo‘ylab suzib yuradigan mitti odamlar haqida so‘zлади...”

A) Ekzyuperining “Kichkina Shahzoda” asaridan olingan ushbu parchada o‘zining Feruza guliga ertaklar so‘zlayotgan Shahzoda tasvirlangan;

B) Oskar Uayld: "Baxtli Shahzoda" ertagidan olingan ushbu parchada ko‘zlari ko‘rmay qolgan Shahzodaga mo‘jizalar haqida so‘zlayotgan qaldirg‘och tasvirlangan;

C) Oskar Uayld: "Baxtli Shahzoda" asaridan olingan ushbu parchada Shahzoda Qaldirg'ochga shaharni kezib chiqib, ko'rgan-eshitgan narsalaring haqida so'zlab bergani tasvirlangan;

D) Ekzyuperining "Kichkina Shahzoda" asarida berilgan so'zlardan Feruza gulining hech ta'sirlanmaganini ko'rgan Shahzoda undan arazlab sayyorasidan ketib qoladi.

9. (Q-4,5 ball) - *Ota, narvon bo 'pti anov qo 'sh terak!*

Bolam, terak emas, bu umr-ku, bu!

Ushbu misralarda ifodalananayotgan asosiy g'oyani aniqlang.

- A. Teraklar umr kabi uzun va tekis bo'lishi.
- B. Har qanday terak ham narvon bo'la olmasligi.
- C. Oila muqaddas ekanligi.
- D. Har bir inson kelajak avlod uchun narvon vazifasini o'tashi.

10. (M-5,5 ball) **R.Fayziy "Hazrati inson" – G'.G'ulom "Sen yetim emassan".** Ushbu asarlarni o'zaro bog'lab turuvchi mulohazani aniqlang.

- A. Inson yaxshilik qilsa, albatta baxt-saodatga erishadi.
- B. Insoniyat uchun hamisha jonini fido qiluvchi qahramonlar bor.
- C. Mehnat qilgan hamisha rohat ko'radi.
- D. Bolaning begonasi bo'lmaydi.